O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

70110102 –Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligining MALAKA TALABLARI

ЎзР ОЎМТВ
Буйруқ № 344
7 08 2023 йил

Toshkent-2023

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «7» 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70110102 –Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligining malaka talablari magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	70110102 – Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	70110102 – Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi	5
1.2.1.	70110102 – Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	5
1.2.2.	70110102 – Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari	5
1.2.3.	70110102 – Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	70110102 – Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari	6
2.	70110102 – Pedagogika va psixologiya ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	9
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.	10
	Bibliografik ma'lumotlar	12
	Kelishuv varag'i	13

1. *70110102 – Pedagogika va psixologiya* magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.

70110102 – Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Magistraturada o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

Magistratura o'quv dasturining hajmi ta'lim shakli (kunduzgi), foydalaniladigan ta'lim texnologiyalaridan qat'iy nazar 120 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o'quv yili uchun magistratura ta'lim dasturining hajmi 60 kreditni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi 5117-son qaroriga ko'ra, *70110102 – Pedagogika va psixologiya* mutaxassisligi magistraturasida o'qish uchun kamida B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. *70110102 – Pedagogika va psixologiya* magistratura mutaxassisligining malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi 70110102 – Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Oliy ta'lim muassasasi mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda asosiy o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

1.1.3.Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va

boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. ***70110102 – Pedagogika va psixologiya*** **mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

1.2.1. ***70110102 – Pedagogika va psixologiya*** **mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

70110102 – Pedagogika va psixologiya - ta'lim sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida jarayonni loyihalashtirish va boshqarish kabi kompleks masalalar majmuasini, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahaliy davlat boshqaruvi organlarida faoliyatni tashkil etish va boshqariga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek sohani rivojlantirishda xavfsizlikni ta'minlash, istiqbolni belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarini qamrab oladi.

1.2.2. ***70110102 – Pedagogika va psixologiya*** **mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- ta'lim sohasi strategiyasini ifodalovchi pedagogik va psixologik ko'rsatkichlar tizimi;
- pedagogika va psixologiya ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayonlari;
- pedagogika va psixologiya ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish jarayonlari;
- o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni;
- pedagogika va psixologiya ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;
- pedagogika va psixologiya ta'lim sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;
- ilmiy-tadqiqot hamda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayonlari.
- ta'lim ko'rsatkichlarining tahlili jarayonlari.

1.2.3. *70110102 – Pedagogika va psixologiya* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *ilmiy-pedagogik,*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi pedagogik faoliyatda* va shukabilarni o'z ichiga oladi.

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. *70110102 – Pedagogika va psixologiya* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:

70110102 – Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik darajasini olgandan so'ng oliy ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ITIlarda katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishi mumkin.

Ilmiy -pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, pedagogik, yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- manbaalarga asoslangan holda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hal etilishi lozim bo'lgan va takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarga doir mavzularni aniqlay olish;

- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;
- zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ta'lim-tarbiyaga doir nazariyalar, konsepsiyalar, ilg'or tajribalardan foydalanish;
- ilmiy muammolarni hal etishning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, talabalar ongiga yangi taraqqiyot strategiyasini singdirish;
- o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;
- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
- mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;
- milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilari va ijodiy jamoani boshqarish tashkil etish va boshqarish va resurslarini rejalashtirish;
- tashkilot va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, pedgogik xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- ilmiy va o'quv faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- pedagogika va psixologiya ta'lim faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, pedagogik va psixologik ta'lim sohasida takliflar ta'lim- tabrbiya samaradorlikni aniqlash;
- qabul qilinadigan qarorlarni pedagogik va psixologik ta'lim samaradorlik mezonlari asosida ularni boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;
- pedagogik va psixologik ta'limga oid loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ta'minlash, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi pedagogik faoliyatda:

- mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratiga ega bo'lishi;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi yangi shakl, metodlar vositalarni o'zlashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish;

- elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish;

- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

2. 70110102 – Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish;

- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish;

- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olish;

- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish;

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilish;

- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mas’uliyat shakllangan bo‘lish;

- kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo‘lishi;

- axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallash;

- o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila olish;

- axborot, bilim, ma’lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lish va axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

- patent olish uchun ish me’yoriy hujjatlar tayyorlay olish;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi lozim.

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi lozim..

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- manbalarga asoslangan holda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hal etilishi lozim bo‘lgan va takomillashtirish talab etiladigan yo‘nalishlarga doir mavzularni aniqlay olish;

- ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;

- zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ta’lim-tarbiyaga doir nazariyalar, konsepsiyalar, ilg‘or tajribalardan foydalanish;

- ilmiy muammolarni hal etishning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, maktabgacha ta’lim tamoyillarini qo‘llay bilishi;

- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- pedagogik va psixologik ta'lim sohasida loyihalarning samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha maktabgacha ta'limni ta'minlash, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;

- pedagogika va psixologiya ta'lim sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

- pedagogika va psixologiya ta'lim tizimi faoliyatini mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilmiy-tadqiqot natijalarini, fanning zamonaviy yutuqlarini inobatga olgan xolda muvofiq yo'lga qo'yish;

- o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, informasion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish;

- pedagogika va psixologiya ta'lim tashkilotlarida marketing xizmati faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va taxlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, qo'shimcha kvalifikatsiya olishga xizmat qiladigan, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

2.3.1. ***70110102-Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi*** **magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha o'quv yuklamalari:**

O'quv fanlari bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Fanlarga ajratilgan soat	Fanlarga ajratilgan kredit miqdori
Majburiy fanlar	780	26
Tanlov fanlari	1020	34
Ilmiy faoliyat	1800	60
jami	**3600**	**120**

2.3.2. 70110102-Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

T.r.	Fanlar bloklari va bloklarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi,	Umumiy yuklamaning hajmi,
		soatlarda	kredit
1	2	3	4
1.00.	**Majburiy fanlar**	**780**	**26**
1.01.	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5
1.02.	Yangi O'zbekiston – Taraqqiyot strategiyasi, ta'lim tizimidagi islohotlar	150	5
1.03.	Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi	120	4
1.01.	Shaxs psixologiyasi va kouching	120	4
1.02	Pedagogik deontologiya va kompetentlik	120	4
1.03	Kasbiy ma'naviyat	90	3
1.04	Pedagogik faoliyatda stress psixologiyasi	150	5
2.00.	**Tanlov fanlar**	**1020**	**34**
3.00.	**Ilmiy faoliyat**	**1800**	**60**
	JAMI	**3600**	**120**

2.4. Kvalifikatsiya:

O'qituvchi-tadqiqotchi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, maktabgacha ta'lim, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:
Toshket davlat pedagogika universiteti

Rektor _____ **A.Kirgizbayev**

2023-yil «26» _____

M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi
direktori _____ Sh.Yakubov

2023-yil «26» _____

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi
direktori _____ Sh.Sattorov

2023-yil «26» _____

M.O'.

Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori _____ Sh.Sharipov

2023-yil «26» _____

M.O'.

Guliston davlat pedagogika instituti
rektori v.b. _____ A.Qalandarov

2023-yil «26» _____

M.O'.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 70110102-Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh. "26" iyul 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori Sh.Sattarov, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori prof. Sh.Sharipov, Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbayev birgalikda TDPUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70110102-Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son hamda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-290-son Qarorlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olingan (hisob raqami 43) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi «Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar» O'zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 35-2021-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejalar belgilangan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori **Sh.Sattarov**

Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori, professor **Sh.Sharipov**

Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori, professor **A.Kirgizbayev**